O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TOSHKENT VILOYATI BO‘KA TUMAN HOKIMI

Q A R O R I

2023 - yil 5 - sentabr 261-10-137-Q/23 Bo‘ka tuman hokimligi

Toshkent viloyati hokimining 2023-yil 21-avgust kunidagi “Favqulodda vaziyat ro‘y berish xavfi yoki favqulodda vaziyat ro‘y berganligi haqida xabar berishning avtomatlashtirilgan tizimini rivojlantirish hamda undan samarali foydalanishni tashkil etish to‘g‘risida”gi 400-10-0-Q/23-sonli qarori to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 11-avgustdagi “Favqulodda vaziyat ro‘y berish xavfi yoki favqulodda vaziyat ro‘y berganligi haqida xabar berishning avtomatlashtirilgan tizimini rivojlantirish hamda undan samarali foydalanishni tashkil etish to‘g‘risida”gi 361-sonli qarori ijrosini ta’minlashda, “Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to‘g‘risida”gi va “Fuqaro muhofazasi to‘g‘risida”gi qonunlari ijrosini ta’minlash, aholiga favqulodda vaziyat ro‘y berish xavfi yoki favqulodda vaziyat ro‘y berganligi haqida xabar berishning avtomatlashtirilgan tizimini rivojlantirish hamda undan samarali foydalanishni tashkil etish maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risi”dagi Qonunning 6- va 25-moddalariga asoslanib

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 11-avgustdagi “Favqulodda vaziyat ro‘y berish xavfi yoki favqulodda vaziyat ro‘y berganligi haqida xabar berishning avtomatlashtirilgan tizimini rivojlantirish hamda undan samarali foydalanishni tashkil etish to‘g‘risida”gi 361-sonli hamda Toshkent viloyati hokimining 2023-yil 21- avgust kunidagi “Favqulodda vaziyat ro‘y berish xavfi yoki favqulodda vaziyat ro‘y berganligi haqida xabar berishning avtomatlashtirilgan tizimini rivojlantirish hamda undan samarali foydalanishni tashkil etish to‘g‘risida”gi 400-10-0-Q/23-sonli qarori ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Yuqoridagi qaror bilan quyidagilar inobatga olinsin:

Favqulodda vaziyat ro‘y berish xavfi yoki favqulodda vaziyat ro‘y berganligi haqida xabar berishning avtomatlashtirilgan tizimini rivojlantirish hamda undan samarali foydalanish tartibi to‘g‘risidagi nizom 1-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi va ushbu nizomning 1-2-3-ilovalari tasdiqlanganligi;

“Favqulodda vaziyat ro‘y berish xavfi yoki favqulodda vaziyat ro‘y berganligi haqida xabar berishning avtomatlashtirilgan tizimini rivojlantirish hamda undan samarali foydalanishni tashkil etish to‘g‘risida”gi 361-sonli qarori, 2023-2028-yillarda respublika darajasidagi va mahalliy darajadagi xabar berish tizimini rivojlantirish uchun terminal komplekslarni xarid qilish dasturi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

Favqulodda vaziyat ro‘y berish xavfi yoki favqulodda vaziyat ro‘y berganligi haqida xabar berishning avtomatlashtirilgan tizimining (keyingi o‘rinlarda - xabar berish tizimi) asosiy maqsad va vazifalari;

xabar berish tizimining tarkibi;

xabar berish tizimini yaratish, ishga tushirish, saqlash va undan foydalanish tartibi;

xabar berish tizimining tayyorligini tekshirish va baholash tartibi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ‘‘Favqulodda vaziyatlar xavfi yoki sodir bo‘lganligi haqida O‘zbekiston Respublikasi aholisiga xabar berish va ma‘lumot (axborot) yetkazishning avtomatlashtirilgan tizimini yaratish rivojlantirish to‘g‘risida’’ 2017-yil 8-avgustdagi 601-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

3. Tuman hokimligi (Sh.Abdiyev, X.Ashurov) favqulodda vaziyat ro‘y berish xavfi to‘g‘risida yoki favqulodda vaziyat ro‘y berganligi haqida aholiga o‘z vaqtida xabar berishni va axborot uzatishni ta’minlasin.

4. Tuman hokimligi axborot xizmati (R.Qosimov) aholini xabardor qilish va aholiga axborot uzatishning maxsus texnik vositalarini o‘rnatish uchun joylar, shuningdek, ommaviy axborot vositalari hamda internet saytlarda yoritilishida favqulodda vaziyatlar bo‘limiga ko‘maklashsin.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimi o‘rinbosari X.Ashurov hamda tuman favqulodda vaziyatlar bo‘limi boshlig‘i Sh.Alimatov zimmasiga yuklatilsin.

Bo`ka tumani hokimi v.v.b **X.Ashurov**

Bo‘ka tuman hokimining
2023-yil 5-sentabrdagi
261-10-137-Q/23-son qaroriga
1-ilova

Yong‘inlar profilaktikasi samaradorligini oshirish va yong‘in xavfsizligi sohasida davlat nazoratini takomillashtirish bo‘yicha

“YO‘L XARITASI”

t/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish shakli	Ijro muddati	Mas’ul ijrochilar
1.	“Yong‘indan hushyorlik” umummilliy kompaniyasini amalga oshirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi”ni tasdiqlash uchun viloyat hokimligiga kiritish.	Chora-tadbirlar rejasi	2023-yil 1-sentyabr	Tuman hokimining o‘rinbosari (X.Ashurov) Tuman FVB (Sh.Pardabekov)